

“Kapitalbank” ATB “Kapital 24”chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga

kompleks bank xizmati ko’rsatish Qoidalariga qo’shilish to’g’risida

OFERTA SHARTNOMASI

Toshkent sh.

«__» _____ 202_ y.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367- va 370-moddalari, elektron hujjat aylanishi to’g’risidagi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga **amal qilgan holda**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 yildagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori va 12.09.2017 yildagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari **ijrosi**, jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish imkoniyatini taqdim etishda zamonaviy bank xizmatlarini ko’rsatish va innovatsion bank texnologiyalaridan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish **maqsadida “Kapitalbank” Aksiyadorlik tijorat banki** (bundan keyin “Bank” deb nomlanadi), 25.08.2021 yildagi 200-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi o’rinbosari Glushenko Aleksey Pavlovich nomidan “Kapitalbank” ATB “Kapital 24”chakana biznes filialida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko’rsatish Qoidalariga (bundan keyin – “Qoidalar”) qo’shilish yoki “Kapitalbank”ning Mobil ilovasidan (bundan keyin – “Ilova”) foydalanishda har qanday **ishga layoqatli jismoniy shaxs** nomiga (**rezident yoki norezident**) va bundan keyin “Mijoz” deb nomlanuvchi, ushbu ilovani O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga asosan qabul qiluvchi (rozilik bildiruvchi) sifatida ushbu ommaviy taklifni (bundan keyin “Oferta shartnomasi”) tasdiqlash yo’li bilan to’liq (hech qanday shartlar, istisnolar va sharhlarsiz) qabul qiladi.

I. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1.1. Ushbu Oferta shartnomasini bir xilda talqin qilish maqsadida quyida keltirilgan atamalardan quyidagi ma’nolarda foydalaniladi:

Elektron pochta manzili – “Aloqa uchun ma’lumotlar” bo’limida Mijoz tomonidan Ariza-so’rovnomanini to’ldirishda ko’rsatilgan elektron pochta manzili. Ushbu Oferta shartnomasi doirasida Mijoz bir vaqtning o’zida faqat bitta elektron pochta manziliga (e-mail) ega bo’lishi mumkin;

Bank kartasi – O‘zbekiston Respublikasi tijorat banki tomonidan chiqarilgan va Mijozga bank hisobvarag’i (hisob kartasi) bo’yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi, onlayn rejimda ishlaydigan emissiya qilingan to’lov (plastik) kartasi;

Amaldagi qonun hujjatlari – O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari, ya’ni qonunlar, qonunosti hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari va qarorlari (buyruqlar, xatlar), ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va bitimlar;

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) – MBX – Masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bankning vakolatli xodimi ishtirokisiz Mijozga bank tomonidan bir qator xizmatlarni taqdim etish. MBX – Masofaviy bank xizmatlari doirasida Mijoz Qoidalarda belgilangan tartibda Bank mahsulotidan foydalanish va/yoki bir martalik operatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Kompleks bank xizmatlari shartnomasi (KBXSh) – Mijozni Qoidalar qo‘shish vositasi orqali Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan shartnoma, ushbu shartnomada MBX – Masofaviy bank xizmatlari doirasida Mijozga xizmatlar ko‘rsatish shartlari va tartibi izohlab beriladi. Qoidalar, Bank tariflari, ushbu Oferta shartnomasi, shuningdek, Mijoz tomonidan belgilangan tartibda to‘ldirilgan ariza anketasi, hammasi birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan KBXSh - Kompleks bank xizmatlari shartnomasi hisoblanadi;

Ariza-so‘rovnoma – Qoidalar qismini ajralmas qismi hisoblangan, “Kapitalbank” ATB bank tomonidan belgilangan shaklda MBX – Masofaviy bank xizmatlari taqdim etilishi uchun elektron ko‘rinishdagi ariza;

Mobil telefon raqami – Mijoz tomonidan Ariza-so‘rovnomada (“Mobil raqam (to‘ldirilishi shart) grafasida”) ko‘rsatilgan, “Aloqa uchun ma‘lumotlar” bo‘limida ko‘rsatilgan, Bank mijozlari ma‘lumotlar bazasida ro‘yxatdan o‘tgan mobil telefon raqami. Ushbu Ommaviy oferta doirasida Mijoz bir vaqtning o‘zida faqat bitta mobil telefon raqamiga ega bo‘lishi mumkin;

Tasdiqlash kodi – Bank tomonidan ishlab chiqarilgan va Mijozning mobil telefon raqami va/yoki elektron pochta manziliga SMS-xabar ko‘rinishida yuboriladigan maxsus bir martalik o‘zgaruvchan kod. Tasdiqlash kodidan foydalangan holda amalga oshirilgan Mijozning barcha xatti-harakatlari e‘tiroz qilinmaydi va mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb tan olinadi va mijoz uchun amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘z qo‘li bilan imzo qo‘yishda foydalanishga o‘xshash huquqiy oqibatlar olib keladi;

Uchinchi shaxslar – agar amaldagi qonun hujjatlari va Qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Bank va Mijozdan tashqari barcha boshqa shaxslar.

1.2. Ushbu Oferta shartnomasi matnida keltirilgan qolgan atamalar ham ushbu Oferta shartnomasining ajralmas qismi bo‘lgan Qoidalar qoidasidagi kabi ma‘nolarga ega bo‘ladi.

1.3. Oferta shartnomasi va Qoidalar matnida atamaning bir ma‘noli talqini mavjud bo‘lmagan hollarda, belgilangan atamaning birinchi navbatda – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ikkinchidan – Bankning veb-sayti, keyin esa – o‘rnatilgan (umumiy) bank amaliyoti bo‘yicha talqiniga amal qilish kerak bo‘ladi.

II. OFERTA SHARTNOMASI MAZMUNI

2.1. Ushbu Oferta shartnomasi mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 360-moddasiga muvofiq Mijozning Qoidalar amaldagi tahririga mijoz sifatida so‘zsiz va to‘liq (hech qanday izohlarsiz, istisnolar va e‘tirozlarsiz) qo‘shilishi hisoblanadi.

2.2. Bankning Qoida va Tariflari Bankning Internet tarmog‘idagi www.kapital24.uz veb-saytida e‘lon qilingan.

III. OFERTA SHARTNOMASINING QABUL QILINISHI

3.1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga asosan, ushbu Oferta shartnomasi matnini Bankning Internet tarmog‘idagi www.kapital24.uz veb-saytida e‘lon qilish (joylashtirish) jismoniy shaxslarning noma‘lum doirasiga yo‘naltirilgan, ushbu Oferta shartnomasi preambulasi (kirish qismida) ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan, unga rozilik bildiriladigan (Qoidalar qo‘shilishga) ommaviy taklif (Oferta) hisoblanadi.

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, Tomonlar ushbu Oferta shartnomasi shartlarini so‘zsiz qabul qilish (rozilik bildirish) orqali Mijoz tomonidan Tasdiqlash kodi kiritilganligi faktini tan oladilar.

3.3. Aksept – Rozilik bildirishning amalga oshirilishi, Mijoz tomonidan quyidagi hollarda tasdiqlangan hisoblanadi:

3.3.1. Ushbu Oferta shartnomasining barcha shartlari, Bank qoidalari va tariflari bilan ular belgilangan shaklda, hech qanday shartlar, istisnolar va izohlarsiz butunlay va to‘liq tanishib chiqadi va qabul qiladi;

3.3.2. Ushbu Oferta shartnomasi va Qoidalarning shartlari/talablariga rioya qilishga rozilik beradi va bajarish majburiyatini oladi. Ularning mazmuni va Oferta shartnomasini tuzish munosabati bilan Mijoz uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlar to‘liq tushuntiriladi;

3.3.3. huquqiy layoqatli/qobiliyatli va o‘zining Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish huquqini tasdiqlaydi;

3.3.4. Ariza-so‘rovnomada aniq, to‘g‘ri, haqiqiy va to‘liq ma‘lumotlar ko‘rsatilgan;

3.3.5. quyidagilar bilan to‘liq tanishib chiqqan va rozilik bildiradi:

- MBX – Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish xavfsizligi bo‘yicha tavsiyalar, KBXSh - Kompleks bank xizmatlari shartnomasi doirasidagi Tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek MBX – Masofaviy bank xizmatlarining boshqa shartlari;
- Qoidalarga qo‘shilish bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar;
- Bankning amaldagi Tariflari va Bank tomonidan Bank Qoidalari va Tariflariga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish tartibi;

3.3.6. Bank tomonidan MBX – Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish maqsadida mobil telefon raqamini uyali aloqa operatorga o‘tkazish va ularni qayta ishlashga rozilik beradi.

3.4. O‘zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda Tomonlar qabul qilingan mazkur hujjatga rozilik bildiradilar va ushbu Oferta shartnomasini qog‘ozdagi shartnomaga tenglashtiradilar va u bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydilar.

3.5. Oferta shartnomasi, shuningdek KBXSh - Kompleks bank xizmatlari shartnomasi doirasida shakllantirilgan hujjatlar muhrlar bilan muhrlash va/yoki Tomonlar tarafidan o‘z qo‘li bilan imzolashni talab qilmaydi, shu bilan birgalikda to‘liq yuridik kuchga egalikni saqlab qoladi.

3.6. Ushbu Oferta shartnomasi shartlariga rozi bo‘lmagan hollarda, Mijozdan ushbu Oferta shartnomasini qabul qilmaslikni so‘raymiz.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Tomonlarning huquq va majburiyatlari Qoidalar bilan belgilanadi va Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartnomasi qabul qilingandan keyin vujudga keladi.

4.2. Mijoz uchinchi shaxslar tomonidan Bank tomonidan MBX – Masofaviy bank xizmatlari doirasida ma‘lumot taqdim etiladigan Tasdiqlash kodi va aloqa vositalaridan foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini oladi.

V. OFERTA SHARTNOMASINING AMAL QILISHI, UNING SHARTLARIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH VA BAHO BERISH

5.1. Ushbu Oferta shartnomasi 3.2-bandda belgilangan tartibda qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va ushbu Oferta shartnomasi Qoidalari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra to'xtatilgunga qadar amal qiladi.

5.2. Bank ushbu Oferta shartnomasi shartlarining o'zgarganligi to'g'risida Mijozni rejalashtirilgan qo'shimcha qilish va/yoki o'zgartirish kiritish sanasidan kamida 5 (besh) kalendar kun oldin bank veb-saytida joriy ofertani umumlashtirishning majburiy tartib-taomiliga rioya qilgan holda www.kapital24.uz sayti orqali xabardor qiladi va xabarnomani elektron shaklda Mijozning shaxsiy kabinetiga Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda yuboradi.

5.3. Bank ushbu Oferta shartnomasini istalgan vaqtda texnik, tashkiliy, yuridik yoki boshqa sabablarga ko'ra Mijozning shaxsiy kabinetiga chaqirib olish sabablarini ko'rsatgan holda elektron ko'rinishdagi xabarnoma yuborish orqali muddatidan oldin chaqirib olish huquqiga ega.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Tomonlar ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Qoidalarga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Ushbu Oferta shartnomasi bilan bog'liq nizolar Tomonlar tarafidan o'zaro muzokaralar olib borish yo'li bilan hal qilinadi. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning imkoni bo'lmagan hollarda, nizolar Qoidalarda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VII. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Bank va Mijoz o'rtasidagi mazkur Oferta shartnomasida ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Qoidalar bilan tartibga solinadi.

7.2. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida" va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonunlari va ushbu shartnomaga muvofiq Mijoz erkin ravishda va o'z ixtiyori bilan va o'z manfaatlari yo'lida bankka bank siridan iborat bo'lgan va shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi axborotni, shuningdek Bankning MBX – Masofaviy bank xizmatlari va KBXSh - Kompleks bank xizmatlari shartnomasi doirasida o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan, qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirlarni Uchinchi shaxslarga taqdim etishga rozilik beradi.

7.3. Ushbu Oferta shartnomasini qabul qilar ekan, Mijoz:

7.3.1. MBX – Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq reklama, tijorat va boshqa ma'lumotlar, shu jumladan MBX – Masofaviy bank xizmatlari kanallari orqali bildirishnomalar yuborish orqali Bankning yangi xizmatlari va Bank va Uchinchi shaxslarning qo'shma mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankdan (Mobil telefon raqami, elektron pochta Manzili va shaxsiy kabinet orqali) olishga roziligini beradi;

7.3.2. quyidagilar haqida o'z xabardorligi va roziligini bildiradi:

- Anketa-so'rovnomada va Bankka taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa uchun ma'lumotlardan Bank tomonidan Mijozga MBX – Masofaviy bank xizmatlari va KBXSh - Kompleks bank xizmatlari shartnomasi ijrosi bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni taqdim etish uchun foydalanish mumkin. Mijoz Uchinchi shaxslar tomonidan Autentifikatsiya vositalaridan foydalanishga ruxsat bermaslik majburiyatini oladi;
- Anketa-so'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotlardagi har qanday jiddiy o'zgarishlar to'g'risida darhol Bankni yozma ravishda xabardor qiladi;
- Login, Parol yoki Tasdiqlash kodini kiritish bilan bog'liq barcha xatti-harakatlar, shuningdek Tasdiqlash oynasida bajariladigan barcha xatti-harakatlar Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshiriladi;
- Qoidalar shartlariga muvofiq, Ariza-so'rovnomada ko'rsatilgan mobil telefon raqamini ro'yxatdan o'tkazish va Qoidalarga muvofiq barcha kerakli ma'lumotlarni unga yuborish;
- iste'mol krediti va overdraft shaklidagi kreditni tuzish va bajarish, shuningdek mikroqarz berish yoki kafillik taqdim etish maqsadida va hokazolarda Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi kredit axborotining Davlat reestri, "O'zbekiston Respublikasi Kredit byurosi" MChJ, Kredit-axborot tahlil markazi va boshqa tashkilotlarda (idoralar, banklar) Mijoz va/yoki kreditlash obyektiga (zarur hollarda) va/yoki kafilga tegishli bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni (kredit hisoboti/kredit tarixi/ma'lumotlar va hokazo) olish va/yoki uzatish huquqiga ega;

7.4. Tomonlar elektron shakldagi hujjatlarni, shu jumladan MBX – Masofaviy bank xizmatlari orqali to'ldirilgan va rasmiylashtirilgan hujjatlarni yozma shaklda tuzilgan hujjatlar deb tan olishga kelishib oldilar.

7.5. Agar ushbu Oferta shartnomasining har qanday qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq noqonuniy va/yoki haqiqiy hisoblanmagan hollarda, Oferta shartnomasining bunday qoidalari Tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qo'llanilmaydi va Oferta shartnomasida avvaldan mavjud bo'lgan dastlabki maqsadlariga maksimal darajada javob beradigan yangi qoidalar bilan almashtiriladi. Oferta shartnomasining qolgan qoidalari to'liq kuchi va haqiqatni saqlab qoladi.

7.6. Ushbu Oferta shartnomasi rus tilida ishlab chiqilgan va chop etilgan.

VIII. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

«Kapitalbank» ATB

Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy.

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy.

MFO: 01158 STIR: 207127843